



## ART-PEDAGOGIKA ASOSIDA O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

*Jonikulov G'.A.  
Nordik magistranti*

**Таянч сўзлар:** арт-педагогика, касбий фаолият, ўқитувчилар, педагогик технология, тизим, педагогик жараён, олий таълим муассасалари, тизимли ёндашув.

**Ключевые слова:** арт-педагогика, профессиональная деятельность, педагоги, педагогические технологии, система, педагогический процесс, вузы, системный подход.

**Key words:** art pedagogy, professional activity, teachers, educational technologies, system, pedagogical process, universities, systematic approach.

Art-pedagogika asosida o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash quyidagi jihatlarni hisobga olishni talab etdi:

- bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- art-pedagogika asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimi mazmuni va mohiyatini monitoringi (baholash);
- oliy ta'lim muassasasidagi talabalar bilan olib borilayotgan mavjud umumiy ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat modeliga asoslanib pedagogik dasturlarni yaratish;
- qo'yilgan maqsadga erishishga doir tadqiqot vazifalarini aniqlashtirish.

N.N.Azizxo'jayevaning tadqiqot ishida, pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi. V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. N.F.Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi,

U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Ularsiz pedagogik jarayon texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi. Tizim (yunoncha systema – yaxlit, qismlardan tarkib topgan, birlashtirilgan) muayyan yaxlitlik, birlikni hosil qiluvchi, o'zaro ta'sirlashuv va bog'liqlikda bo'lgan ko'plab elementlarni anglatadi. Tizim – tartibli ravishda joylashgan va o'zaro bog'liqlikda bo'lgan qismlar birligini ifodalovchi yaxlitlikdir.

“Tizimlilik” tushunchasini jarayonlar va borliqdagi hodisalarning tizim hosil qila olishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllarining tizimli qurilishga egaligi kabi holatlarni aks ettira olishi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin. N.Muslimov tomonidan “tizimli yondashuv” tushunchasining keng tahlili quyidagicha berilgan: Tizimli yondashuv – ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo'nalishi bo'lib, uning asosida obyektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Tizimli yondashuv tadqiqotchini obyekt yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari turli tiplarini aniqlashga hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirishga yo'naltiradi. Tizimli yondashuvning metodologik o'ziga xosligi uning tadqiqotlarni quyidagilarga yo'naltirishi bilan izohlanadi: obyekt yaxlitligini va uni ta'minlovchi mexanizmlarni ochib berish; murakkab aloqalarining turli tiplarini aniqlash hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirish; shuningdek, obyektning yaxlitlik xususiyatlarini, uning tuzilmasi hamda dinamikasini belgilash imkonini beruvchi murakkab obyekt o'zaro bog'langan modellarining iyerarxik tizimi to'g'risidagi tasavvurlarni amalga oshiradi. Demak, tizimli yondashuvdan kelib chiqadiki, murakkab obyekt (tizim)ning o'ziga xosligi uning tarkibiy qismlarining alohida xususiyatlarini inkor etmaydi, aksincha, ma'lum bir tarkibiy qismlar orasidagi aloqa va munosabatlarga doir bog'lanishlarni hosil qiladi. Yaxlit tizimning asosiy belgilari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Yaxlit tizimning asosiy belgisi aynan tizimiy integral va uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning jamoaviy sifati (yoki sifatlari)ning mavjudligidir.
2. Yaxlit tizimning ajralmas alomati uning tarkibiy qismlari, zero, tizim ulardan tarkib topadi hamda usiz mavjud bo'la olmaydi. Biroq tarkibiy qismlar tasodifiy obyektlarning yig'masi emas. Ular tizim bilan integrasiyalashgan, aynan ushbu tizimning tarkibi hisoblanadi. Tizimning maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash borasida uni tadqiq qilish, loyihalash, tarkibiy qismlarini aniqlashga tizimli-tuzilmaviy yondashuv deb ataladi.

Tizimli-tuzilmaviy (amaliy, asosli) yondashuv obyektning tuzilish xususiyatlarini yaxlit, tarkibiy qismlarga berilgan vaqt oralig'i bo'yicha bo'laklangan holatda qarab chiqishni ko'zda tutadi.



3. Yaxlit tizim – maqsadli tizim, u muayyan maqsadni amalga oshirishga intiladi. Maqsad tizimda uni hosil qiluvchi muhim omillardan biri sifatida yuzaga keladi. Biroq, maqsad unga erishish uchun muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Tizimning muhitda maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan harakatlari aynan uning funksiyalarini tashkil qiladi. Funksiyalar maqsadga nisbatan unga erishish usuli sifatida yuzaga chiqadi. Tizimning maqsadga erishish uchun muhitdagi o'zini tutishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalashga tizimli-funksional yondashuv deyiladi.

4. Har qanday tizim o'zgaras, barcha davrlar uchun bir xil bo'lib qolmaydi. U absolyut, abadiy emas, chunki qarama-qarshiliklar mavjudligi unga ham xosdir. Har bir tizim nafaqat faoliyat ko'rsatadi, balki, shu bilan birga rivojlanadi; u o'z ibtidosiga ega, u yaralish davrini o'taydi, tarkib topadi va rivojlanadi. Tizimlar nazariyasida tizimning yashash vaqti uning asosiy tavsifiy belgilaridan biri hisoblanadi.

5. Tizimni uning vaqt bo'yicha rivojlanishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalash tizimli yondashuv deb ataladi.

Tizimli yondashuv obyektning yuzaga kelishi, yaralishi hamda tarkib topishini tizimli-genezis sifatida belgilab beradi.

6. Har bir tizim o'z navbatida o'zidan yuqori darajada turuvchi metatizimning tarkibiy qismi sanaladi, shu kabi u o'zidan quyi darajada turuvchi tarkibiy qismlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, hеч bir tizim boshqalardan izolyasiyalanmagan, balki ko'plab aloqalar bilan boshqa turli tizimiy va notizimiy uyushmalar bilan ta'sirlashib turadi. Tizim o'ziga nisbatan tashqi bo'lgan muhitda harakatda bo'ladi, rivojlanadi, u bilan ko'plab kommunikasiyalar orqali bog'lanadi. Tizimni unga nisbatan mavjud bo'lgan boshqa tizimiy va notizimiy uyushmalar nuqtai nazaridan o'rganishga tizimli-kommunikativ yondashish deb ataladi.

7. Tizimga doimiy ravishda o'zida uning turg'unligini buzishga qaratilgan ta'sirlar ko'rsatib turiladi. Ushbu ta'sir avvalo har qanday tizimning ichida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar oqibatida yuzaga keladi. Shu bilan birga resurslar yetishmasligi, qattiq cheklashlar kabi tashqi salbiy ta'sirlar ham mavjud. Bunga qaramasdan tizim yashaydi va rivojlanib boradi. Demak, tashkil etuvchi qismlarning o'ziga xos yig'masi, ichki tuzilma va boshqalar bilan birga boshqa tizim hosil qiluvchi, tizimni himoyalovchi omillar ham mavjud. Tizimning yashovchanligini ta'minlovchi ushbu omillarga boshqaruv deyiladi.[104]

Akademik Yu.K.Babanskiy o'quv jarayonini optimallashtirish (jadallashtirish) nazariyasi va amaliyotini asoslab bergan olim sanaladi.

Jadallashtirish – bir vaqtning o'zida quyidagi mezonlarga javob beradigan o'quv jarayoni bo'lib, bular:

- ▶ uning mazmuni, tuzilishi va ta'lim jarayonida har bir ishtirokchining o'quv faoliyatini maksimal darajada rivojlantirish hamda tarbiyalash, shuningdek, mantiqiy fikrlash orqali muammolarni samarali va sifatli hal qilishni ta'minlaydi;
- ▶ ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining belgilangan maqsadiga erishishida ko'p vaqt hamda ortiqcha mehnat kuchini sarflamasligi.[44]

Art-pedagogika asosida ta'lim mazmunini qulaylashtirish, ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, uning ishtirokchilarini ijodiy faollashtirish hamda bu orqali o'qituvchi tayyorlashning ana'anaviy ta'lim shakllarini yangilash va jadallashtirish mumkin. Art-pedagogika asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashni jadallashtirish funksiyalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- √ o'quv materialining mazmunini taqdim etish;
- √ ta'lim olishning psixofiziologik va psixologik qulayligini ta'minlash;
- √ o'qitish samaradorligini yashirin diagnostikasini amalga oshirish.

Art-pedagogikaning o'zaro ta'sir etish jarayonida talaba o'zidagi ijodkorlik imkoniyatlarini ochadi, bu esa oxir-oqibatda bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbiy va shaxsiy qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini shakllantirishning muhim manbai bo'lishi mumkin. Dars jarayonida rolli vaziyat ("rejisser", "aktyor", "musavvir", "musiqachi" va boshqa) repertuarlarini kengaytirishi o'ziga va boshqa shaxsga kasbiy va shaxsiy qiziqish uyg'otishiga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash obyektiv, tashqi omillar (muhit, ma'naviy-madaniy faoliyatning xilma-xil turlarida kishilar bilan o'zaro birgalikdagi harakat) hamda subyektiv, ichki omillar (shaxsning his-tuyg'ulari, olam bilan o'zaro uyg'unlikda harakatlanishning zarurligini anglash, tavsif berish va baholashga doir shaxsiy kuch va imkoniyatlari) bilan bevosita bog'liqdir. Ana shu sababli oliy ta'lim muassasalari talabalarini art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning yetakchi omili sifatida bir tomondan o'z xulq-atvorini ongli boshqarish, ikkinchi tomondan shaxsning amaliy faoliyati aks etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva N. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Oliy ta'lim muassasalari misolida): ped. fan. dok. ... diss. – T., 2010. – 332 b.
2. Ergashev J.B. Bo'lajak matematika o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligining mazmunini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss., 2019. -140 b.
3. Эргашева Ш.Т. Проблемы модернизации профессионального образования// Личностно-ориентированный подход к современному обучению и воспитанию. Вып. 3. ч 3. – Т.: УЗНИИПН им.Кары-Ниязи, 2008. --С. 39-41.
4. ЮНЕСКО "Информация для всех". – М., 2007. – 616 с..



5. Yakubjanova D.B. Bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... avtoref. - T., 2018. -53 b.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada art-pedagogika asosida o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari o'rganilgan. Art-pedagogikaning o'zaro ta'sir etish jarayonida talaba o'zidagi ijodkorlik imkoniyatlarini ochadi, bu esa oxir-oqibatda bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbiy va shaxsiy qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini shakllantirishning muhim manbai bo'lishi mumkin.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются вопросы подготовки учителей к профессиональной деятельности на основе арт-педагогике. В процессе взаимодействия арт-педагогике у ученика раскрываются его творческие возможности, что в конечном итоге может стать важным источником уверенности будущих учителей в своих профессиональных и личностных способностях.

#### SUMMARY

This article discusses the issues of preparing teachers for professional activities based on art pedagogy. In the process of interaction between art pedagogy, the student's creative potential is revealed, which ultimately can become an important source of confidence for future teachers in their professional and personal abilities.